XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-sentabr VII-13-131-11-0-K/25 Farg‘ona viloyati

Qo‘shtepa tumani “Balandmasjid” MFY, Oltiariq tumani “Jarqo‘rg‘on” MFY, So‘x tumani “Soxibkor” MFY, Toshloq tumani “Yuqori qishloq” MFY, Buvayda tumani “Yangi Qishloq” MFY, Dang‘ara tumani “Qashqar” MFY, Quva tumani “Baynalminal” MFY, Uchko‘prik tumani “Xasanqora” MFY va Oltiariq tumani “Qapchug‘ay” mahalla fuqarolar yig‘inlarining shaharsozlik hujjatlarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027 yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2023-2027-yillarda qishloq aholi punktlarining hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish jadvaliga ko‘ra, 2024-yilda Qo‘shtepa tumani “Balandmasjid” MFY, Oltiariq tumani “Jarqo‘rg‘on” MFY, So‘x tumani “Soxibkor” MFY, Toshloq tumani “Yuqori qishloq” MFY, Buvayda tumani “Yangi Qishloq” MFY, Dang‘ara tumani “Qashqar” MFY, Quva tumani “Baynalminal” MFY, Uchko‘prik tumani “Xasanqora” MFY va Oltiariq tumani “Qapchug‘ay” mahalla fuqarolar yig‘inlarining shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqish sxemalari (*bundan buyon matnda - Rivojlantirish sxemalari*) ishlab chiqish, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, Farg‘ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, “Qishloqqurilishloyiha” MCHJ va uning filiallari mas’ul ijrochi sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Shaharsozlik kodeksi”ning 45-moddasida shaharsozlik hujjatlari ushbu Kodeksda belgilangan vakolatlarga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli davlat organi, Qorakalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari, buyurtmachi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan.

Shunga ko‘ra, viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi 2025-yil 7-avgustdagi 11-01-02/70701-sonli xati bilan murojaat qilib, ushbu aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlari “Qishloqqurilishloyiha” MChJ tomonidan ishlab chiqilib, tuman hokimliklari tomonidan jamoat kengashi bayoni bilan va viloyat Arxitektura-shaharsozlik kengashida ko‘rib chiqilib ma’qullanganligini, ushbu shaharsozlik hujjatlarini Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlanishini so‘ragan.

Yangi rivojlantirish sxemalari O‘zbekiston Respublikasi “Shaharsozlik kodeksi” va amaldagi shaharsozlik norma va qoidalari talablari asosida, Farg‘ona viloyati Qurilish

va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasining buyurtma xati, ikki tomonlama tuzilgan shartnoma va loyiha topshirg‘i bo‘yicha 2024-yilda ishlab chiqilgan. Xususan,

Qo‘shtepa tumani “Balandmasjid” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 5 502 nafarni, aholi punktining yer maydoni 188,8 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 6 879 nafarni, aholi punktining yer maydoni 188,8 gektarni tashkil qiladi.

Oltiariq tumani “Jarqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 3 748 nafarni, aholi punktining yer maydoni 871,0 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 4826 nafarni, aholi punktining yer maydoni 871,0 gektarni tashkil qiladi.

So‘x tumani “Soxibkor” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 2369 nafarni, aholi punktining yer maydoni 770,4 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 3051 nafarni, aholi punktining yer maydoni 770,4 gektarni tashkil qiladi.

Toshloq tumani “Yuqori qishloq” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 5 090 nafarni, aholi punktining yer maydoni 260,0 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 6 458 nafarni, aholi punktining yer maydoni 260,0 gektarni tashkil qiladi.

Buvayda tumani “Yangi Qishloq”mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 5 131 nafarni, aholi punktining yer maydoni 134,67 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 6415 nafarni, aholi punktining yer maydoni 134,67 gektarni tashkil qiladi.

Dang‘ara tumani “Qashqar” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 6 587 nafarni, aholi punktining yer maydoni 134,1 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 8 235 nafarni, aholi punktining yer maydoni 135,8 gektarni tashkil qiladi.

Quva tumani “Baynalminal” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 3 200 nafarni, aholi punktining yer maydoni 117,86 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 4 121 nafarni, aholi punktining yer maydoni 118,19 gektarni tashkil qiladi.

Uchko‘prik tumani “Xasanqora” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 3 876 nafarni, aholi punktining yer maydoni 126,0 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 4846 nafarni, aholi punktining yer maydoni 126,0 gektarni tashkil qiladi.

Oltiariq tumani “Qapchug‘ay” mahalla fuqarolar yig‘inining xozirgi holatiga ko‘ra, aholi soni 5126 nafarni, aholi punktining yer maydoni 131,0 gektarni tashkil qiladi, loyihaviy xisoblashda aholi soni 6 650 nafarni, aholi punktining yer maydoni 134,5 gektarni tashkil qiladi.

Ushbu yuqoridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalari “Qishloqqurilishloyiha” MCHJ tomonidan ishlab chiqilib, tuman hokimliklari tomonidan jamoat kengashi bayoni bilan hamda viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi huzuridagi Arxitektura-shaharsozlik kengashida ko‘rib chiqilib, Kengashning tegishli bayonnomalari bilan tasdiqlangan.

Shuningdek, mazkur masala viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi huzuridagi Arxitektura va shaharsozlik kengashida ko‘rib chiqilib, Kengashning 2024 yil 19 noyabrdagi 47/01-sonli bayoni tasdiqlangan.

Mazkur bosh reja loyihalarini ishlab chiqishdan maqsadi:

Aholi punkti hududini aniq funksional hududlarga ajratish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, aholini uy-joy va boshqa infratuzilma obektlari bilan ta’minlanganligini meyoriy talab darajasiga olib chiqish, hududdagi aholi uchun xizmat qilish tizimini qulaylashtirish, zararli sanoat va ishlab chiqarish korxonalirini shahar hududidan chiqarib, ularni o‘rniga zamon talablariga mos, ekologik toza ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni joylashtirish bilan atrof-muxitni tozalash va boshqa jarayonlardan iboratdir.

Shuningdek, rivojlantirish sxemalari dolzarbligi, keyingi yillarda respublikada keskin ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va shaharsozlik sohasida turar-joylar va ijtimoiy-maishiy obektlar qurilishini rivojlantirish hamda muxandislik-kommunikatsiya va yo‘l transport infratuzilmalarini yangilashni xisobga olgan holda rejalashtirishning siyosiy shartlari bilan asoslanadi.

Rivojlantirish sxemalarini ishlab chiqishda. bugungi kundagi iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy va ishlab chiqarish saloxiyatlari hamda aholining o‘sish sur’atlari kabi ko‘rsatkichlari o‘rganib chiqilib, barcha sohalardagi ko‘rsatkichlarni xukumat toshiriqlari, davlat dasturlarida belgilangan hamda shaharsozlik nuqtai nazaridan meyoriy talablarga moslashtirish vazifasi qo‘yilgan.

Rivojlantirish sxemalarining asosiy yechimlari, mahalla hududini ixcham, har tamonlama qulay aholi punktiga aylantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik Kodeksining 45-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PQ-299-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati tug‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 2025-yil 7-avgustdagi 11-01-02/70701-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi huzuridagi Arxitektura va shaharsozlik Kengashining 2024 yil 19 noyabrdagi 47/01-sonli bayoni inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Qo‘shtepa tumani “Balandmasjid” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **1-ilovaga** muvofiq;

Oltiariq tumani “Jarqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **2-ilovaga** muvofiq;

So‘x tumani “Soxibkor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **3-ilovaga** muvofiq;

Toshloq tumani “Yuqori qishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **4-ilovaga** muvofiq;

Buvayda tumani “Yangi Qishloq”mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Dang‘ara tumani “Qashqar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Quva tumani “Baynalminal” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Uchko‘prik tumani “Xasanqora” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Oltiariq tumani “Qapchug‘ay” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi **9-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Qo‘shtepa tumani (A.Abdullayev), Oltiariq tumani (Sh.Turdaliyev), Buvayda tumani (B.Ibragimov), So‘x tumani (S.Sayidmusayev), Toshloq tumani (A.Djurabayev), Uchko’prik tumani (Q.Erkaboyev),Yozyovon tumani (D.Djalilov) va Quva tumani (X.Umarov) hokimlari hamda viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (B.Raximov) bilan birgalikda o‘z vakolatlari doirasida:

tegishli mutasaddi tashkilot va idoralarni jalb etgan holda shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalari muvofiq, mahalla fuqarolar yig‘inlari hududlarini shaharsozlik jihatidan va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqib, tasdiqlash;

mahalla fuqarolar yig‘inlari hududi yerlaridan maqsadsiz foydalanishga va noqonuniy qurilishlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan qat’iy nazorat o‘rnatish yo‘li bilan ulardan samarali foydalanish;

energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali muhandislik-kommunikatsiya tuzilmasini (suv, elektr, gaz, issiqlik ta’minoti, telekommunikasiya obyektlari, kanalizasiya, irrigasiya) qurish va rekonstruksiya qilish yo‘li bilan modernizasiya qilish;

ko‘p qavatli uy-joylar, ta’lim, sog‘liqni saqlash, sport, madaniyat, san’at va dam olish obyektlarini oqilona joylashtirish hamda bosh rejaga muvofiq, infratuzilmani rivojlantirish tavsiya etilsin.

5. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi (SH.Xudayberganov), aholi punktlarining tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlariga asosan, qurilish obektlarini joylashtirilishiga qat’iy amal qilinishini nazoratga olsin.

6. “Qishloqqurilishloyiha” MCHJ bosh loyiha-qidiruv instituti, tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarini amalga oshirilishida qonunchilikda belgilangan tartibda mualliflik nazoratini o‘rnatsin.

7. Barcha tuman (shahar) hokimlari har yili o‘z hududlarining shaharsozlik hujjatlari ijrosi yuzasidan tegishliligi bo‘yicha xalq deputatlari Kengashlariga hisobot taqdim etib borsin.

8. Viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Dolimov har yili viloyat hududlarining shaharsozlik hujjatlari ijrosi yuzasidan xalq deputatlari viloyar Kengashiga hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika arxitektura-shaharsozlik kengashiga hisobot taqdim etib borsin.

9. Xalq deputatlari viloyat, tegishli tuman Kengashlari deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan Rivojlantirish sxemalarini o‘z vaqtida, to‘liq, sifatli va tizimli amalga oshirilishi yuzasidan deputatlik nazoratini o‘rnatsin.

Bunda, soha mas’ullari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar (tadbirlar)ni monitoring qilgan holda joyida o‘rganishlar olib borish, o‘rganish natijalarini mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyalarida muxokama etib borsin.

10. Viloyat hokimligi axborot xizmati (M.Sulaymonov) viloyatdagi telekanallar, bosma va elektron ommaviy axborot vositalari orqali rivojlantirish sxemalari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida doimiy ravishda yoritib borish tavsiya etilsin.

11. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat etish Xalq deputatlari viloyat Kengashining “Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (Sh.G‘aniyeva) hamda viloyat hokimining o‘rinbosari X.Dolimov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KOMILOV
XOLMATJON
ADILOVICH

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2025-yil 22-sentabrdagi
VII-13-131-11-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Qo‘shtepa tumani “Balandmasjid” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi

FARG'ONA VILOYATI QO'SHTEPA TUMANI "BALANDMASJID" MAHALLA FUQAROLAR YIG`INI AHOLI PUNKTI BOSH REJA LOYIHASINI ISHLAB CHIQILISHI BILAN BIR VAQTDA BATAFSIL REJALASHTIRISH LOYIHASI ASOSIY CHIZMASI



1-ilova davomi

Qo‘shtepa tumani “Balandmasjid” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi

BINO VA INSHOOTLAR QAYDNOMASI

№	Nomlanishi	Soni			Ish o'rinlari		Ko'rsatkichlar		Loyiha turi
		mavjud holat	I navbat	rejaviy navbat-dagi qurilish	I-navbat	Rejaviy muddat	umumiy maydoni m²(1dona)	binoning hajmi m³(1dona)	
a	7 qavatli 42 xonadonli turar joy binolari	-	5	-	-	-	33250	9975	"Qishloqqurilishloyiha"
b	7 qavatli 56 xonadonli turar joy binolari	-	-	4	-	-	42000	12600	"Qishloqqurilishloyiha"
s	7 qavatli 35 xonadonli turar joy binolari	-	1	-	-	-	2870	8610	"Qishloqqurilishloyiha"
d	7 qavatli 28 xonadonli turar joy binolari	-	-	2	-	-	1890	5670	"Qishloqqurilishloyiha"
	Mavjud 1, 2 qavatli turar-joy binolari	-	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
	Ma'muriy obyektlar								
1	Mahalla idorasi	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
2	Inspektor profilaktika uyi	1	-	-	-	-	-	-	"Qishloqqurilishloyiha"
	Maktablar/maktabgacha ta'lim muassasalari								
3	37-sonli 480 o'rinli umumiy o'rta ta'lim maktabi	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
4	Umumiy o'rta ta'lim maktabi 990 o'rinli loyihaviy	-	1	-	-	54	1216,3	15007,2	"Qishloqqurilishloyiha"
5	120 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti loyihaviy	-	-	1	-	30	352,34	2114,4	"Qishloqqurilishloyiha"
6	90 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti loyihaviy	-	-	1	-	20	768,6	2305,8	"Qishloqqurilishloyiha"
7	60 o'rinli xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti	2	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
	Tibbiyot muassasalari								
8	Oilaviy poliklinika (qayta ta'mirlash)	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
9	Oilaviy poliklinika loyihaviy	-	1	-	8	-	254,0	762,0	"Qishloqqurilishloyiha"
10	Qishloq oilaviy shifohonasi	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
11	Dorixona	1	-	-	2	-	114,0	342,0	Individual loyiha
	Komunal-maishiy va madaniyat obyektlari								
12	**Mahalla maishiy xizmat ko'rsatish markazi, shu jumladan:** - ochiq ishlash joylari - majlislar zali (kutubxona bilan) - xotin-qizlar faoli - erkaklar va ayollar sartaroshxonasi - dorixona - o'quv markazi - tikuvchilik sexi - sport zali	1	-	-	20	-	475,0	1425,0	"Qishloqqurilishloyiha"
13	Mahalla guzari	-	1	-	4	-	220,0	660,0	Individual loyiha
14	30 o'rinli choyxona	-	1	-	8	-	432,1	1296,3	"Qishloqqurilishloyiha"
15	Minibank	-	1	-	2	-	38,0	114,0	"Qishloqqurilishloyiha"
16	**Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish:** - poyafzal tuzatish ustaxonasi - sartaroshxona - go'zallik saloni - texnika ustaxonasi	-	1	-	8	-	180,0	540,0	Individual loyiha
17	IV tipdagi supermarket	-	1	-	10	-	507,0	3042,0	Individual loyiha
18	"Coworking" binosi	-	1	-	4	-	235,0	1410,0	Individual loyiha
19	Sport sport sog'lomlashtirish markazi	-	1	-	6	-	114,0	342,0	Individual loyiha
20	Savdo do'koni	6	1	-	-	-	-	-	Mavjud bino
21	Jome masjidi	2	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
22	15 o'rinli hammom	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
23	Xususiy bo'sh bino	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
24	Sovutgichli omborxona	2	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
25	Oshxona	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
26	Choyxona	2	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
27	Omborxona	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
28	Marosimlar uyi	-	1	-	12	-	746,0	4476,0	"Qishloqqurilishloyiha"
	Sanoat obyektlari								
29	Kichik Sh/B ishlab chiqarish sexi	1	-	-	-	-	-	-	Mavjud bino
	Ko'kalamzor hududi								
30	**Sayilgoh,** -rekreatsion hudud	-	1	-	-	-	-	-	Individual loyiha
31	**"Workout" hududi, shu jumladan:** -Kichik futbol maydonchasi -Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish uchun anjomlar	-	1	1	-	-	-	-	Individual loyiha
	Jami ish o'rinlar				84	104			

ASOSIY TEHNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Xozirgi holat	I navbat muddati (5 yil)	Rejaviy muddat (15 yil)
1	**Aholi soni**	**kishi**	**5502**	**5927**	**6879**
2	-Mehnatga layoqatli aholi soni	**soni**	**2400**	**2585**	**3001**
	-Oilalar soni	kishi	1518	1635	1898
	-Xo'jaliklar soni	kishi	1014	1092	1268
3	**Bir xo'jalikka ajratilgan yer uchastkasi**	**ga**	**0,06-0,2**	**0,04-0,06**	**0,04-0,06**
4	**Uy-joy fondi umumiy maydoni**	**m^2**	**234400,0**	**236700,0**	**237800,0**
	-mavjud turar-joylarning umumiy maydoni	m^2	234400,0	234400,0	234400,0
	-yangi loyihalangan uy-joylarning umumiy maydoni	m^2	-	2300,0	3400,0
5	**Aholi punkti yer maydoni**	**ga**	**137,8**	**138,03**	**138,14**
6	**Uy joy fondi zichligi (brutto)**	**m^2/ga**	**1701,01**	**1714,84**	**1721,44**
	Bir kishiga nisbatan umumiy foydalaniladigan ko'kalamzorlar maydoni	**ga**	**-**	**5,6**	**6,2**
	Bir kishiga nisbatan uy-joy fondi umumiy maydoni	**m^2/kishi**	**42,6**	**39,93**	**34,56**

SHARTLI BELGILAR

Hudud chegarasi.....

Yondosh hudud chegarasi.....

Yakka tartibdagi turar-joy binolari.....

Yangi O'zbekiston massivida ko'p qavatli turar-joy binolari .....

Istiqbolli kelajakda qurilishi rejalashtirilgan 1 qavatli kottej tipidagi turar-joy binolari .....

Mavjud umumta`lim va maktabgacha ta`lim tashkilotlari .....

Loyihaviy umumta`lim va maktabgacha ta`lim tashkilotlari.....

Mavjud ma`muriy va jamoat obyektlari .....

Loyihaviy ma`muriy va jamoat obyektlari ....

Bolalar maydonchasi .....

Sport va sog`lomlashtirish markazi (WORKOUT).....

Aholi punktidagi asosiy yo`llar (velosiped va piyodalar yo`lakchasi bilan) .....

Aholi punkti ichidagi ko`chalar .....

Avtoturargohlar .....

Qabriston va undan sanitar himoya hudud.....

Kichik ishlab chiqarish hududi .....

Tomorqa yerlari .....

Mevali bog'lar .....

Mavjud obyektlarning qaydnoma raqami .....

I navbat obyektlarning qurilishi uchun qaydnoma raqami .....

Rejaviy muddatdagi obyektlarning qurilishi uchun qaydnoma raqami .....

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2025-yil 22-sentabrdagi
VII-13-131-11-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

Oltiariq tumani “Jarqo‘rg‘on” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi



BINO VA INSHOOTLAR QAYDNOMASI

№	Nomlanishi	Soni			Ish o'rinlari		Ko'rsatkichlar		Loyiha turi
		mavjud holati	I navbat	rejaviy navbat-dagi qurilish	I navbat	Rejaviy muddat	umumiy maydoni m²(1dona)	binoning hajmi m³(1dona)	
a	1 qavatli kottej tipidagi turar-joy binolari (0,06)	-	154	154	-	-	149,2	1035,0	"Qishloqqurilishloyiha"
b	5 qavatli turar-joy binolari	-	-	4	-	-	192,4	1154,4	"Qishloqqurilishloyiha"
	Mavjud 7 qavatli turar-joy binolari	3							Mavjud bino
	Mavjud 1, 2 qavatli turar-joy binolari				-	-	-	-	Mavjud bino
	Ma'muriy obyektlar								
1	Mahalla idorasi	-	1	1	-	-	-	-	"Qishloqqurilishloyiha"
2	Davlat xizmat ko'rsatish agentligi	-	1	1	12	12	288,0	864,0	"Qishloqqurilishloyiha"
	Maktablar/maktabgacha ta'lim muassasalari								
3	Loyihaviy umumiy o'rta ta'lim maktabi 330 o'rinli	-	1	1	18	18	720,0	1440,0	"Qishloqqurilishloyiha"
4	90 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti	-	1	1	-	-	-	-	"Qishloqqurilishloyiha"
5	60 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti	-	2	2	20	20	534,0	1068,0	"Qishloqqurilishloyiha"
	Tibbiyot muassasalari								
6	Oilaviy poliklinika	-	1	1	-	-	-	-	"Qishloqqurilishloyiha"
7	Dorixona	-	1	1	2	2	114,0	342,0	Individual loyiha
	Komunal-maishiy va madaniyat obyektlari								
8	**Mahalla maishiy xizmat ko'rsatish markazi, shu jumladan:** - ochiq ishlash joylari - majlislar zali (kutubxona bilan) - xotin-qizlar faoli - erkaklar va ayollar sartaroshxonasi - dorixona - o'quv markazi - tikuvchilik sexi - sport zali	-	1	1	20	20	475,0	1425,0	"Qishloqqurilishloyiha"
9	Mahalla guzari	1	1	1	4	4	220,0	660,0	Individual loyiha
10	30 o'rinli choyxona	1	2	2	8	8	432,1	1296,3	"Qishloqqurilishloyiha"
11	Kafe	-	1	1	8	8	432,1	1296,3	"Qishloqqurilishloyiha"
12	Madaniyat markazi	-	1	1	-	-	-	-	Mavjud bino
13	Marosimlar uyi	-	1	1	12	12	746,0	4476,0	"Qishloqqurilishloyiha"
14	Minibank	-	1	1	2	2	38,0	114,0	"Qishloqqurilishloyiha"
15	**Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish:** - poyafzal tuzatish ustaxonasi - sartaroshxona - go'zallik saloni - texnika ustaxonasi	-	2	2	8	8	180,0	540,0	Individual loyiha
16	IV tipdagi supermarket	-	1	1	10	10	507,0	3042,0	Individual loyiha
17	Ekobozor	1	1	1	10	10	507,0	3042,0	Individual loyiha
18	Savdo do'koni	2	2	2	6	6	114,0	342,0	Individual loyiha
19	Novvoyxona	-	2	2	2	2	-	-	Individual loyiha
20	15 o'rinli hammom	-	1	2	8	8	174,0	522,0	"Qishloqqurilishloyiha"
21	Mini futbol maydoni	1	1	1	8	8	174,0	522,0	"Qishloqqurilishloyiha"
	Sanoat obyektlari								
22	Oltiariq gaz stansiyasi	1	1	1	-	-	-	-	Mavjud bino
23	Suv inshooti	4	4	4	-	-	-	-	Mavjud bino
24	**Kichik ishlab chiqarish hudud shu jumladan:** - pishiriq sexi - tikuvchilik sexi - mevali sharbat ishlab chiqarish sexi - meva quritish omborxonasi - omborxona - sut mahsulotlarini qayta ishlash sexi	3	4	4	22	57	-	-	Individual loyiha
25	Issiqxonalar	1	3	3	6	20	-	-	Individual loyiha
26	Avtomobillarni gaz quyish shaxobchasi Metan	1	1	1	-	-	-	-	Mavjud bino
27	Gaz tarqatish shaxobchasi (GRS)	2	2	2	-	-	-	-	Individual loyiha
28	Logistika	-	1	1	-	-	-	-	Individual loyiha
29	Muzlatgich omborxonalari	5	5	5	-	-	-	-	Individual loyiha
30	Mobil aloqa antenasi	5	5	5	-	-	-	-	Individual loyiha
31	Dala shiyponi	5	5	5	-	-	-	-	Individual loyiha
	Jami ish o'rinlar								

ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР

Hudud chegarasi.....

Yakka tartibdagi turar-joy binolari.....

Tartibsiz yakka tartibda qurilgan uy-joylarni kelajakda tartibli ravishda yo'l yuziga joylashtirish taklifi .....

Mavjud ko'p qavatli turar-joy binolari.....

I navbatda qurilishi rejalashtirilgan 20 xonadonli 5 qavatli turar-joy binolari.....

Rejaviy muddatga qurilishi rejalashtirilgan 20 xonadonli 5 qavatli turar-joy binolari.....

Rejaviy muddatga qurilishi rejalashtirilgan 24-30 xonadonli 5 qavatli turar-joy binolari.....

Mavjud umumta'lim muassasalari.....

Loyihaviy umumta'lim muassasalari.....

Loyihaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti.....

Loyihaviy ma'muriy va jamoat obyektlari .....

Sport sog'lomlashtirish markazi .....

Kanal va zovurlar .....

Sanitar himoya hududlar .....

Intensiv bog' va ekin yerlari .....

Mevali bog'lar.....

Aholi punktidagi asosiy yo'llar (velosiped va piyodalar yo'lakchasi bilan) .....

Aholi punkti ichidagi ko'chalar .....

Avtoturargohlar .....

Sanoat va ishlab chiqarish hududlari .....

Mavjud ob'yektlarning qaydnoma raqami 6

I navbat ob'yektlarning qurilishi uchun qaydnoma raqami 17

Rejaviy muddatdagi ob'yektlarning qurulishi uchun qaydnoma raqami 10

HUDUD BALANSI

№	Hudud	Mavjud holat 1.01.2023 y.			Mavjud holat 1.01.2023 y.			Mavjud holat 1.01.2023 y.		
		ga	%	m²/kishi	ga	%	m²/kishi	ga	%	m²/kishi
1	2	3	4	5	3	4	5	3	4	5
	Aholi soni		3748			4078			4826	
1	**Yashash hududi, jami:** **shu jumladan:**	**157,4**	**32,7**	**420,0**	**158,1**	**32,8**	**387,7**	**158,4**	**32,9**	**328,2**
	- mavjud turar-joy binolari	150,3	31,2	401,0	150,3	31,2	368,6	150,3	31,2	311,4
	- 5 qavatli turar-joy binolari	7,1	1,5	18,9	7,1	1,5	17,4	7,1	1,5	14,7
	- 5 qavatli turar-joy binolari	-	-	-	0,7	0,1	1,7	1,0	0,2	2,1
2	**Jamoat va ijtimoiy obyektlar, jami:** **shu jumladan:**	**1,4**	**0,3**	**3,6**	**5,6**	**1,2**	**13,7**	**5,6**	**1,2**	**11,6**
	- ma'muriy obyektlar	0,2	0,0	0,5	0,2	0,0	0,5	0,2	0,0	0,4
	- maktablar va maktabgacha ta'lim muassalari	-	-	-	2,9	0,6	7,1	2,9	0,6	6,0
	- tibbiyot muassalari	-	-	-	0,3	0,1	0,7	0,3	0,1	0,6
	- sport sog'lomlashtirish markazi	0,2	0,0	2,7	0,2	0,0	0,5	0,2	0,0	0,4
	- kommunal maishiy va madaniyat obyektlari	1,0	0,2	0,5	2,0	0,4	4,9	2,0	0,0	4,1
3	**Ko'kalamzor hududi**	-	-	-	-	-	-	-	-	-
4	**Magistral yo'llar, ko'chalar, maydonlar va avtoturargohlar**	**24,3**	**5,0**	**64,8**	**27,1**	**5,6**	**66,5**	**27,1**	**5,6**	**56,2**
6	**Sanoat hududi**	**3,6**	**0,8**	**9,7**	**3,6**	**0,8**	**8,9**	**3,6**	**0,8**	**7,5**
7	**Boshqa yerlar, jami:** **shu jumladan:**	**282,3**	**58,58**	**753,2**	**287,5**	**59,65**	**705,0**	**287,2**	**59,59**	**595,73**
	- tomorqa yerlar	22,9	4,8	61,1	22,9	4,8	56,2	22,9	4,8	47,5
	- qabriston hududi	1,7	0,4	4,5	1,7	0,4	4,2	1,7	0,4	3,5
	- ekin yerlar	100,5	20,9	268,1	100,5	20,9	4,3	100,5	20,9	4,3
	- bog'lar	97,6	20,3	260,4	97,6	20,3	4,2	97,6	20,3	4,2
	- suv havzalari	6,3	1,3	16,8	6,3	1,3	15,4	6,3	1,3	13,1
	- sanitar himoya hududi	53,3	11,1	142,2	53,3	11,1	130,7	53,3	11,1	110,4
	Jami hudud	**481,9**	**100,0**	**1251,3**	**481,9**	**100,0**	**1200,7**	**481,9**	**100,0**	**999,23**


ASOSIY TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

№	Nomlanishi	Ko'rsatkich birligi	Mavjud holat	I navbat	Rejaviy muddat
1	**MFY aholi yashash hududi**	**Ga**	**157,4**	**158,1**	**158,4**
2	**Aholi soni**	**kishi**	**3748**	**4078**	**4826**
3	**Xo'jaliklar soni**	**soni**	**691**	**752**	**890**
4	**Oilalar soni**	**soni**	**1096**	**1192**	**1411**
5	**Bir xo'jalikka ajratilgan yer uchastkasi**	**ga**	**0.06-0.10**	**0.06-0.10**	**0.06**
6	**Uy-joy fondi umumiy maydoni**	**м²**	**340 670,0**	**355 945,0**	**358 829,3**
	mavjud uy-joy umumiy maydoni	м²	340 670,0	340 670,0	340 670,0
7	**Loyihaviy uy-joy umumiy maydoni**	**м²**	**-**	7 436,4	7 436,4
	Loyihaviy uy-joy umumiy maydoni			7 838,6	10 722,6
8	**Uy-joy fondi zichligi (brutto)**	**м²/ga**	**1 000,2**	**738,6**	**744,6**
9	**Bir kishiga nisbata umumiy foydalaniladigan ko'kalamzorlar maydoni**	**м²**			
10	**Bir kishiga nisbatan uy-joy fondi umumiy maydoni**	**м²/kishi**	**42,0**	**87,3**	**74,3**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2025-yil 22-sentabrdagi
VII-13-131-11-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

3-ilova

So‘x tumani “Soxibkor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi



BINO VA INSHOOTLAR QAYDNOMASI

№	Nomlanishi	Miqdori				Ko'rsatkichlar		Loyiha turi
		mavjud holat	1 navbat	Rejaviy muddat	Yangi qur.o'rni	Binoning umumiy maydoni (m²/dona)	Binoning hajmi m³/dona)	
	5-qavatli 30-xonadonli turar-joy binolari	-	1	4	**8**	712,0	-	Namunaviy loyiha
	1-qavatli savdo va maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari							
	2-qavatli kottej tipidagi turar-joy binolari (0.04) ga	-	28	28	-	149.2	671,4	Namunaviy loyiha
	1-2 qavatli mavjud turar-joy binolari	433	433	433	-	-	-	Namunaviy loyiha
	Ma'muriy obyektlar							
1	"Sohibkor" MFY idorasi	1	1	1	-	160,0	480,0	Moslashtirilgan bino
2	Militsiya tayanch punkti	1	1	1	-	-	-	Moslashtirilgan bino
3	O't o'chirish posti (Pojarnaya depo)	1	1	1	-	560,0	1960,0	Namunaviy loyiha
4	Post xizmati bo'limi	1	1	1	-	112,0	448,0	Moslashtirilgan bino
	Maktablar/maktabgacha ta'lim muassasalari							
5	27-sonli umumta'lim maktabi	1	1	1	-	1910,0	6685,0	Namunaviy loyiha
6	24-sonli umumta'lim maktabi	1	1	1	-	1707,0	5974,0	Namunaviy loyiha
7	26-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	1	1	1	-	408,0	3432,9	Namunaviy loyiha
8	60- o'rinli maktabgacha ta'lim tashkiloti (loyixaviy bino)	-	1	2	**24**	488,0	1464,0	Namunaviy loyiha
	Tibbiyot muassasalari							
9	Kasalxona binosi (bolnisa)	1	1	1	-	168,0	588,0	Namunaviy loyiha
10	Poliklinika binosi	1	1	1	-	726,0	2541,0	Namunaviy loyiha
11	Dorixona binosi	2	2	2	-	98,0	343,0	Moslashtirilgan bino
12	Stamatalogiya binosi	1	1	1	-	475,0	1662,0	Moslashtirilgan bino
	Komunal, maishiy-madaniy va jamoat obyektlari							
13	**Maishiy xizmat ko'rsatish binosi:** -poyafzal tuzatish ustaxonasi -sartaroshxona -go'zallik saloni -tikuvchilik xonasi -xo'jalik texnikalarini tuzatish ustaxonasi	-	1	1	**25**	291,0	1018,0	Namunaviy loyiha
14	Madaniyat uyi	-	1	1	**10**	473,0	1892,0	Namunaviy loyiha
15	Istirohat bog'i	-	1	1	**2**	-	-	Namunaviy loyiha
16	Bolalar dam olish maskani	1	1	1	-	-	-	Namunaviy loyiha
17	Tuy marosimlarini o'tkazish binosi	-	-	1	**10**	640,0	4480,0	Namunaviy loyiha
17a	Supermarket binosi	-	-	1	**6**	216,0	864,0	Namunaviy loyiha
18	Ayollar saloni va tikuv sexi	-	-	1	**10**	210,0	1260,0	Namunaviy loyiha
19	"Workout" maydonchasi	-	1	1	**2**	-	-	Namunaviy loyiha
20	Sut mahsulotlarini tayorlash va sotish do'koni	-	1	2	**6**	185,0	1110,0	Namunaviy loyiha
21	Qandolat mahsulotlarini tayorlash va sotish do'koni	-	-	1	**8**	192,0	960,0	Namunaviy loyiha
22	Sport sog'lomlashtirish binosi	-	1	1	**6**	487,0	1704,0	Namunaviy loyiha
23	O'quv markazi binosi	1	1	1	-	182,0	673,0	Moslashtirilgan bino
24	Pishiriqlar sexi	1	1	1	-	322,0	1127,0	Moslashtirilgan bino
25	Shirkat xo'jaligi binosi	1	1	1	-	408,0	1224,0	Moslashtirilgan bino
26	Bolalar maydonchasi	-	1	1	**1**	-	-	
27	Dehqon bozori	1	1	1	-	3056,0	12224	Namunaviy loyiha
28	Bozor avtoturargohi	-	1	1	**2**	-	-	Namunaviy loyiha
29	Mahalla boshqaruvi servis kompaniyasi binosi (MBSK)	-	1	1	**6**	132,0	462,0	Namunaviy loyiha
30	Masjid binosi	1	1	1	-	590,0	2655,0	Mavjud bino
31	Qariyalar choyxonasi	-	1	1	**6**	167,0	584,0	Namunaviy loyiha
32	Non mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish do'koni	-	2	2	**6**	136,0	1664,0	Namunaviy loyiha
33	Hammom binosi 15-o'rinli	-	1	1	**2**	174,0	696,0	Namunaviy loyiha
34	Gilam yuvish va ximchistka binosi	-	1	1	**4**	171,0	684,0	Namunaviy loyiha
35	Mavjud savdo do'konlari	4	4	4	-	195,0	682,0	Moslashtirilgan bino
36	Mavjud oshxona binosi	2	2	2	-	273,0	955,0	Moslashtirilgan bino
36a	Loyihaviy oshxona binosi 50- o'rinli	-	1	2	**8**	384,0	1536,0	Namunaviy loyiha
36b	Go'sht do'koni	-	1	1	**2**	30,0	90,0	Namunaviy loyiha
36v	Veterenariya xizmati dorixonasi va o'simliklarni himoya qilish dorixonasi	-	1	1	**2**	72,0	216,0	Namunaviy loyiha
37	Mavjud choyxona binosi	1	1	1	-	558,0	1953,0	Moslashtirilgan bino
38	Xo'jalik mollari do'koni	3	3	3	-	304,0	1064,0	Moslashtirilgan bino
39	Qurilish materiallari do'koni	1	1	1	-	476,0	1904,0	Moslashtirilgan bino
40	Avtosalon do'koni	1	1	1	-	145,0	652,0	Moslashtirilgan bino
	Kichik sanoat obyektlari							
41	Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish shahobchasi	2	2	2	-	194,0	679,0	Moslashtirilgan bino
42	Avtomobillarni yuvish shahobchasi	1	1	1	-	193,0	675,0	Moslashtirilgan bino
43	Hunarmandchilik uctoxonasi	2	2	2	-	195,0	682,0	Moslashtirilgan bino
44	Muzlatgich omborxonalar	-	-	2	**2**	107,0	374,0	Namunaviy loyiha
45	Zamonaviy issiqxonalar	-	2	2	**10**	-	-	Namunaviy loyiha
46	Mevani qayta ishlash sexi	-	1	1	**15**	924,0	3696,0	Namunaviy loyiha
47	Shlakablok ishlab chiqarish sexi	-	1	2	**8**	520,0	2080,0	Namunaviy loyiha
48	Ichimlik suvi tarqatish inshooti	1	1	1	-	76,0	228,0	Moslashtirilgan bino
49	Elektr tarmoqlari nim ctansiyasi	1	1	1	-	511,0	-	Moslashtirilgan bino
50	Mavjud omborxonalar	5	5	5	-	247,0	988,0	Moslashtirilgan bino
51	Tarozixona	1	1	1	-	548,0	1644,0	Moslashtirilgan bino
	Jami yangi ish o'rinlari				**171**			

SHARTLI BELGILAR

Hudud chegarasi.....

Yakka tartibdagi turar-joy binolari.....

I-navbatda quriladigan 5-qavatli 30-xonadonli turar-joy binolari 1-qavati maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari .....

Rejaviy muddatda quriladigan 5-qavatli 30-xonadonli turar-joy binolari .....

Istiqbolli kelajakda quriladigan 5-qavatli 30-xonadonli turar-joy binolari .....

I-navbatda quriladigan kottej tipidagi 1-qavatli turar-joy binolari (0.04) ga ....

Mavjud yakka tartibdagi turar-joy binolarini tartibga solib, yo'l yuziga ko'chirish taklifi .....

Mavjud yakka tartibdagi turar-joy binolarini tartibga solib, yo'l yuziga ko'chirish uchun 2-qavatli turar-joy binolarini qurish taklifi .....

Zichlashtirish hisobidan quriladigan turar-joy binolari .....

Mavjud umumta`lim maktablari.....

Loyihaviy umumta`lim va maktabgacha ta`lim tashkilotlari.....

Mavjud ma`muriy va jamoat obyektlari .....

Loyihaviy ma`muriy va jamoat obyektlari .....

Bolalar maydonchasi .....

Kanal va zovurlar .....

Aholi punkti ichidagi ko`chalar .....

Avtoturargohlar .....

Aholi punktidagi asosiy yo`llar .....

Dala tomarqalar .....

Mevali bog'lar .....

Zamonaviy issiqxonalar.....

Meyvali intensiv bog'lar.....

Ishlab chiqarish hududi .....

Yuqori kuchlanishli elektr tarmog`i va undan sanitar himoya hudud .....

ishlab chiqarish hududlaridan sanitariya himoya hududi .....

Qabriston hududlaridan sanitariya himoya hududi .....

Mavjud obyektlarning qaydnoma raqami .....

I- navbatda quriladigan obyektlarning qaydnoma raqami .....

Rejaviy muddatdagi obyektlarning qaydnoma raqami .....

HUDUD BALANSI

№	Hudud	Mavjud holati 1.01.2024 y.			1-navbat muddati (5 yil)2029 y.			Rejaviy muddat (15yil) 2039 y.		
		ga	%	m²/kishi	ga	%	m²/kishi	ga	%	m²/kishi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
	Aholi soni		**2369**			**2576**			**2991**	
1	**Yashash hududi, jami: shu jumladan:**	**51.0**	**67,6**	**215,2**	**52,55**	**66,2**	**203,9**	**53,44**	**66,3**	**178,6**
	- mavjud yakka tartibdagi turar-joy binolari hududi	51 ,0	67,6	215,2	51 ,0	64,3	198,0	51 ,0	63,3	170,5
	-5-qavatli 30-xonadonli turar-joy binolari 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish do'konlari	-	-	-	0,35	0,4	1,3	1,24	1,5	4,1
	- 1 qavatli kottej tipidagi turar-joy binolari (0.06-0.04 ga)	-	-	-	1,2	1,5	4,6	1,2	1,4	4,0
2	**Jamoat va ijtimoiy obyektlar, jami: shu jumladan:**	**8,37**	**11,1**	**35,3**	**10,12**	**12, 7**	**39,3**	**11,09**	**13,8**	**37,0**
	- ma'muriy obyektlar	0,47	0,62	1,9	0,47	0,6	1,8	0,47	0,6	1,6
	- umumiy o'rta ta'lim maktablari	4,24	5,6	17,9	4,24	5,3	16,4	4,24	5,3	14,2
	- maktabgacha ta'lim tashkiloti	0,1	0,13	0,42	0,6	0,8	2,3	1,06	1,3	3,5
	- sport sog'lomlashtirish markazi	-	-	-	0,55	0,69	2,1	0,55	0,7	1,8
	- tibbiyot muassasalari	0,91	1,2	3,84	0,91	1,1	3,5	0,91	1,1	3,0
	- kommunal maishiy va madaniyat obyektlari	2,65	3,5	11,2	3,35	4,2	13,0	3,86	4,8	12,9
3	**Ko'kalamzor hududi**	**1,2**	**1,6**	**5,0**	**1,5**	**1,9**	**5,8**	**1,5**	**1,8**	**5,0**
4	**Magistral yo'llar, ko'chalar, maydonlar va avtoturargohlar**	**9,0**	**11,9**	**37,9**	**11,5**	**14,5**	**44,6**	**11,8**	**14,6**	**39,4**
5	**Suv havzalari**	**0,46**	**0,61**	**1,94**	**0,46**	**0,6**	**1,8**	**0,46**	**0,6**	**1,5**
6	**Sanoat hududi**	**1,4**	**1,8**	**5,9**	**0,54**	**0,7**	**2,0**	**0,28**	**0,3**	**0,9**
7	**Boshqa yerlar, jami: shu jumladan:**	**3,97**	**5,3**	**16,75**	**2,64**	**3,3**	**10,2**	**2,01**	**2,5**	**6,7**
	- ekin yerlari	-	-	-	-	-	-	-	-	-
	- tomarqa yerlari	2,1	2,8	8,86	1,27	1,6	4,9	0,64	0,8	2,1
	- bog'lar	1,87	2,5	7,89	1,37	1,7	5,3	1,37	1,7	4,6
	Jami hudud	**75,4**	**100,0**	**317,99**	**79,31**	**100,0**	**307,6**	**80,58**	**100,0**	**269,1**


ASOSIY TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

№	Nomlanishi	Ko'rsatkich birligi	Sohibkor MFY		
			Xozirgi holat	I-navbatda	Rejaviy muddatda
1	**MFY aholi yashash hududi**	**Ga**	**51,0**	**52,55**	**53,44**
2	**Aholi soni**	**Kishi**	**2369**	**2576**	**2991**
3	**Xo'jaliklar soni**	**soni**	**433**	**471**	**547**
4	**Oilalar soni**	**soni**	**692**	**732**	**802**
5	**Bir xo'jalikga ajratilgan yer uchastkasi**	**ga.**	**0,12-0,15**	**0,06-0,04**	**0,06-0,04**
6	**Uy-joy fondi umumiy maydoni**	**m²**	**173200,0**	**191000,0**	**202000,0**
	-mavjud turar joylarning umumiy maydoni	**m²**	173200,0	173200,0	173200,0
	-Yangi loyihalangan uy-joylarning umumiy maydoni	**m²**	-	17800,0	28800,0
7	**Uy-joy fondi zichligi (brutto)**	**m²/ga.**	**2297,0**	**2358,0**	**2493,8**
	-mavjud turar joylarning zichligi (brutto)	**m²/ga.**	2297,0	2297,0	2297,0
	-Yangi loyihalangan uy-joylarning zichligi (brutto)	**m²/ga.**	**-**	219,7	355,5
8	**Aholi punkti yer maydoni**	**ga.**	**75,4**	**79,31**	**80,58**
9	**Bir kishiga nisbatan umumiy foydalaniladigan ko'kalamzorlar maydoni**	**m²**	**-**	**6,6**	**6,6**
10	**Bir kishiga nisbatan uy-joy fondi umumiy maydoni**	**m²/kishi**	**73,1**	**74,1**	**67,5**

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2025-yil 22-sentabrdagi
VII-13-131-11-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

4-ilova

Toshloq tumani “Yuqori qishloq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarini shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemasi



HUDUD BALANSI

№	Hudud	Mavjud holat 1.01.2023 y.			1-navbat muddati (5 yil)2028 y.			Rejaviy muddat (15yil) 2038 y.			Istiqbolli kelajak
		ga	%	m²/kishi	ga	%	m²/kishi	ga	%	m²/kishi	ga
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Aholi soni		**5090**			**5510**			**6458**		
1	**Yashash hududi, jami:**	**302,30**	**17,18**	**593,90**	**330,02**	**18,76**	**598,94**	**352,33**	**20,03**	**545,57**	
	shu jumladan:										
	- mavjud turar-joy binolari	302,30	17,18	593,90	302,30	17,18	593,90	302,30	17,18	593,90	
	- 1 qavatli kottej tipidagi turar-joy binolari (0.06)	-	-	-	27,72	1,57	50,30	50,03	2,84	77,46	
2	**Jamoat va ijtimoiy obyektlar, jami:**	**5,88**	**0,33**	**11,55**	**6,59**	**0,37**	**11,96**	**6,59**	**0,37**	**10,20**	
	shu jumladan:										
	- ma'muriy obyektlar	0,12	0,006	0,23	0,12	0,006	0,22	0,12	0,006	0,18	
	- 38-sonli umumiy o'rta-ta'lim maktabi	1,53	0,08	3,00	1,53	0,08	2,77	1,53	0,08	2,37	
	- 40-o'rinli umumiy o'rta-ta'lim maktabi	0,43	0,02	0,84	0,43	0,02	0,78	0,43	0,02	0,66	
	- 42-sonli umumiy o'rta-ta'lim maktabiga 240 o'rinli blok	0,06	0,003	0,11	0,06	0,003	0,10	0,06	0,003	0,09	
	- 40-o'rinli umumiy o'rta-ta'lim maktabiga 240 o'rinli o'quv bloki				0,10	0,005	0,18	0,10	0,005	0,15	
	- 50 o'rinli 22- maktabgacha ta'lim muassasasi	0,09	0,005	0,17	0,09	0,005	0,16	0,09	0,005	0,14	
	- 120 o'rinli loyihaviy maktabgacha ta'lim muassasasi				0,61	0,03	1,10	0,61	0,03	0,94	
	- sport sog'lomlashtirish markazi	0,86	0,048	1,68	0,86	0,048	1,56	0,86	0,048	1,33	
	- tibbiyot muassasalari	0,14	0,007	0,27	0,14	0,007	0,25	0,14	0,007	0,21	
	- kommunal maishiy va madaniyat obyektlari	2,65	0,15	5,20	2,65	0,15	4,80	2,65	0,15	4,10	
3	**Ko'kalamzor hududi**	-	-	-	**3,39**	**0,19**	**6,15**	**4,40**	**0,19**	**6,81**	
4	**Magistral yo'llar, ko'chalar, maydonlar va avtoturargohlar**	**27,62**	**1,57**	**54,26**	**48,97**	**2,78**	**88,87**	**79,97**	**4,54**	**123,83**	
6	**Sanoat hududi**	**46,41**	**2,63**	**91,17**	**46,41**	**2,63**	**84,22**	**46,41**	**2,63**	**71,86**	
7	**Boshqa yerlar, jami:**	**471,44**	**26,80**	**926,20**	**471,44**	**26,80**	**855,60**	**471,44**	**26,80**	**730,00**	
	shu jumladan:										
	- tomorqa yerlar	15,39	0,87	30,23	15,39	0,87	27,93	15,39	0,87	23,83	
	- qabriston hududi	2,59	0,14	5,88	2,59	0,14	4,70	2,59	0,14	4,01	
	- ekin yerlar	362,64	20,61	712,45	362,64	20,61	658,14	362,64	20,61	561,53	
	- bog'lar	6,98	0,39	13,71	6,98	0,39	12,66	6,98	0,39	10,80	
	- suv havzalari	1,20	0,06	2,35	1,20	0,06	2,17	1,20	0,06	1,85	
	- sanitar himoya hududi	21,96	1,24	43,14	21,96	1,24	39,85	21,96	1,24	34,00	
	- boshqa yerlar	60,68	3,45	119,21	32,96	1,87	59,81	10,65	0,60	16,49	
	Jami hudud	**1759,0**	**100,0**	**1585,91**	**1759,0**	**100,0**	**1645,74**	**1759,0**	**100,0**	**1488,27**	**1759,00**

SHARTLI BELGILAR

Hudud chegarasi.....

1-2 qavatli turar joy binolari .....

Yakka tartibdagi turar-joy binolari.....

Mavjud umumta`lim va maktabgacha ta`lim tashkilotlari .....

Loyihaviy umumta`lim va maktabgacha ta`lim tashkilotlari.....

Mavjud ma`muriy va jamoat obyektlari .....

Loyihaviy ma`muriy va jamoat obyektlari ....

Sport va sog`lomlashtirish markazi (WORKOUT).....

Aholi punkti ichidagi ko`chalar .....

Avtoturargohlar .....

Qabriston va undan sanitar himoya hudud.....

Kichik ishlab chiqarish hududi .....

Tomorqa yerlari .....

Mevali bog'lar .....

Mavjud obyektlarning qaydnoma raqami 6

I navbat obyektlarning qurilishi uchun qaydnoma raqami 17


ASOSIY TEHNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Xozirgi holat	I navbat muddati (5 yil)	Rejaviy muddat (15 yil)
1	**Aholi soni**	**kishi**	**5090**	**5510**	**6458**
2	-Mehnatga layoqatli aholi soni	**soni**	**2256**	**2442**	**2868**
	-Oilalar soni	kishi	1478	1594	1868
	-Xo'jaliklar soni	kishi	947	1025	1202
3	**Bir xo'jalikka ajratilgan yer uchastkasi**	**ga**	**0,06-0,12**	**0,06-0,10**	**0,06-0,06**
4	**Uy-joy fondi umumiy maydoni**	**m^2**	**796005,0**	**1073205,0**	**1296305,0**
	-mavjud turar-joylarning umumiy maydoni	m^2	796005,0	796005,0	796005,0
	-yangi loyihalangan uy-joylarning umumiy maydoni	m^2	-	277200,0	500300,0
5	**Aholi punkti yer maydoni**	**ga**	**302,30**	**330,02**	**352,33**
